



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Qurbonova Maftuna Faxriddinovna,¹
Bekpo'latova Tursunoy Nurqul qizi²**

¹Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute Psixologiya kafedrası p.f.f.d.(PhD).

²Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute magistiri

E-mail: lazizbek_9400@mail.ru,

tel: +99891 226 92 25

O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI KENGAYISHIDA TA'LIM JARAYONLARINING O'RNI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishda o'yin va o'yinchoqlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tarbiyalanuvchi, o'yinchoq, qo'g'irchoq, tarbiya, ta'lim, ertak, nutq o'stirish, maktabgacha ta'lim, yozuv, milliy o'yinchoqlar, milliy qadriyatlar.*

РОЛЬ ИГРИ ИГРУШЕК В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ

***Аннотация:** В статье обсуждается значение игр и игрушек в развитии устной речи детей в дошкольном образовании.*

***Ключевые слова:** ученик, игрушка, кукла, воспитание, образование, сказка, развитие речи, дошкольное образование, письмо, национальные игрушки, национальные ценности.*

ROLE OF GAMES AND TOYS IN DEVELOPMENT SPEAKING

Abstract: *The article discusses the importance of games and toys in the development of children's oral speech in preschool education.*

Key words: *pupil, toy, doll, upbringing, education, fairy tale, speech development, preschool education, writing, national toys, national values.*

Kirish (Introduction). Bola nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish nafaqat psixologiya nuqtayi nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega [1]. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o'z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma'lumot olishni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun asos yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o'yin vazifalaridan biri bu bolaning so'zlarini boyitish, tushunchalarni o'zlashtirishda, ishlatilgan so'zlarning polisemiyasini va ularning semantik soyalarini tushunishda. O'yinlarda nutq faoliyati rivojlanadi, ona tiliga qiziqish va e'tibor tarbiyalanadi.

O'yin bolani har tomonlama har jihatdan to'g'ri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. O'yin insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. O'yinchoq bu narsaning o'ziga xos predmeti bo'lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Ko'pgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o'zlari duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o'rgatadi. Bola o'yinchoqlar bilan tanishish, o'ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar o'zlari orasida bo'ladigan munosabatlari, bir-birlariga muomala madaniyatlari, o'zlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. O'yinchoqlar orqali bola sizga, atrofdagilarga nima demoqchiligini tushuntira oladi. Ular o'yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘yin nazariyasini va o‘yinchoqlarning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdagi o‘rni haqida L.S.Vygotskiy, A.N.Leontiev, D.B.Elkoninlar samarali izlanishlar olib brogan [2].

Buyuk rus olimi A.M.Gorkiy “O‘yinchoq, avvalambor bolani hayratla qoldiradi va bu tuyg‘u tushunishning boshlanishidir”. O‘yinchoq bolani atrof-muhit bilan tanishtiradi, ularni o‘rgatadi, taassurotlarini mustahkamlaydi va muloqotga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi [3].

O‘yinchoq bola tug‘ilganidan to 3 yoshigacha bo‘lgan davrda katta ahamiyatga ega. Chunki ular o‘ynash davomida o‘zlarini rag‘batlantiradi, o‘yin tashkil etish qonun-qoidalarini o‘rganadi: qo‘g‘irchoq bilan ular ona va qiz bo‘lib o‘ynashsa, raketa yoki moshina, samolyot bilan ular haydovchi rolini o‘ynashga kirishib ketadi. O‘yinchoqlar orqali o‘yin qay tarzda ketayotganini va nima maqsad borligini tushuntira oladi. Bola ota-onaga ichidagi his tuyg‘ularini o‘yin orqali yetkazib beradi. Bola o‘yin mazmuni o‘yinchoqqa bog‘liqligini bilib, uning ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Bola o‘yinchoq o‘ynash orqali o‘zini dunyosini shakllantirib, yangi g‘oyalar bilan o‘rtoqlashadi va shu g‘oyalarni rivojlanishiga yordam berishimiz kerak. O‘yinchoqlar bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy ta’sirga ega, chunki hamma narsalar xilma-xilligi bilan tasvirlanadi. Hayvonlar, o‘simliklar, transportlar, turli xil asbob-anjomlar, har xil shakllar, hattoki, inson o‘zi ham qo‘g‘irchoqlar sifatida o‘yinchoqqa aytantirilgan. O‘yinchoqlar bola hayotida ilk hayot tasavvurlarni shakllantirib, asta sekinlik bilan rivojlantiradi. Bola o‘yinchoq o‘ynab o‘sha muhitga kirishadi. Misol qilib oladigan bo‘lsak bola shifokor qo‘g‘irchog‘ini o‘ynash vaqtida o‘zini shifokorday gapirib, bemorlarga yordam berishga urinishadi.

Bola ulg‘aygan sari o‘yinchoqlarni saralay boshlaydi. Ular o‘zlariga manfaat keltiruvchi yoki o‘yin payti bola nimani xohlayotganiga qarab o‘yinchoqni tanlaydi. O‘yinchoq bolani har tomonlama, nutqini, xotirasini, hissiyotlarini, fikrlashini rivojlantirib, shakllantiradi. N.K.Krupskaya “O‘yinchoqlar bolalarni atrofdagi

haqiqiy dunyo bilan tanishtirish, ularning hissiyotlarini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega deb yozgan. [4]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘yinchoqlarga turli xil tasniflar mavjud bo‘lib ular: Didaktik o‘yinchoq, ta‘limiy o‘yinlar, teatr o‘yini, sport o‘yini va musiqiy o‘yinlarga ajratiladi.

Didaktik o‘yinchoqlar – o‘yin jarayonida bolalar o‘zlari turmush tarzi, tabiati, har xil hodisalar haqida o‘rgatadi. Bolalarning bilimini chuqurlashtiradi. Didaktik o‘yinlar bolalar nutqini rivojlantirishga katta e‘tibor beradi.

Ta‘limiy o‘yin – bu o‘yin orqali bolalarga o‘yin orqali ta‘lim-tarbiya o‘rgatadi. Bunda o‘yin bilan bir qatorda bilim, malaka egallanadi.

Teatr o‘yini – zamonaviy teatrdagi “o‘yin” atamasi aktyor tomonidan turli ifoda vositalari nutq, mimika, imo-ishora, har xil harakatlar orqali foydalanuvchiga yetkazib berish.

Sport o‘yini – bolalarni sog‘lom bo‘lishiga qaratilgan harakatli o‘yinlar. Bolalar sport o‘yinlari orqali kun bo‘yi tetik, quvnoq, karfiyati a‘lo bo‘lib yuradi.

Musiqiy o‘yin – bolalar bu o‘yin orqali musiqaga qiziqishini shakllantiradi. Musiqiy qobiliyatlari rivojlantiradi. Bu o‘yin bolalarga quvonchli va quvnoq daqiqalar beradi. Bolalarda o‘yinlar orqali milliy urf-odatlarimiz ham shakllanadi. Bolalarga har bir o‘yinni tushuntirish kerak.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘yinchoqlar bolani to maktabga chiqqunicha bola hayotida katta o‘rin egallaydi. Bolalar yoshi kichkina paytida barcha o‘yinchoqlarni o‘ynashga urinadi. Keyinchalik yoshi ulg‘aygan sari o‘yinchoqlarni saralay boshlaydi. O‘zlariga ayni vaqtda nima kerakligini yon-atrofdagilarga o‘yinchoqlar orqali yetkazadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida kichik guruh (3-4 yosh) bolalariga asosan qo‘lda bemalol o‘ynashga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar o‘ynaladi. Tig‘li, uchli o‘yinchoqlar bola hayoti uchun xavfli bo‘lgani uchun bunday turdagi o‘yinchoqlar o‘ynash uchun tavsiya etilmaydi. O‘rta guruhda (4-5 yosh) bolalar kichik guruhdan farqli ravishda mazmunan murakkab o‘yinlar o‘ynashadi. Unda bolalar tarbiyachi bilan birga o‘yinchoqlar orqali rollar ijro etishlari mumkin. Ijro etayotgan rollari orqali bolada nutq ham rivojlanadi.

Yangi soʻzlar oʻrganadi. Talaffuzidagi kamchiliklar ham asta-sekin toʻgʻrilanib boriladi. Katta guruh (5-6 yosh) bolalar bemalol oʻzlari oʻyinchoq oʻynashlari mumkin boʻladi. Oʻzlari orasida rollar boʻlib olinib turli oʻyinlar va oʻyinchoqlar orqali rollar ijro etiladi. Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) bolalar endi oʻyinchoqlarni bemalol tanlay oladi. Qaysi personajga qaysi oʻyinchoq mos kelishini tarbiyachisiz oʻzlari mustaqil tanlab koʻrsatishi mumkin.

Oʻyin bilan oʻyinchoqni farqi shundaki, oʻyin orqali bolalar oʻzlari turli muhitga turlicha moslashishni oʻrganadi. Oʻyinda bolalar oʻzlari ishtirok etadi. Oʻyinda bolalarni psixikasi, oʻy-xayollarida nima kechayotganini bilishimiz mumkin. Oʻyin orqali bolalar oʻrtasida nutq, muomila madaniyati rivojlanadi.

Oʻyinchoqlar rang-barangligi bilan bolalarni oʻzlariga jalb qiladi. Har bir bola turli oʻyinchoqlar oʻynaydi. Bola qanday oʻyinchoq oʻynayotganiga qarab uni ichki dunyosini bilib olish mumkin. Oilasida bolaga boʻlgan munosabatlar ham bola oʻyinchoq oʻynash orqali bildiradi [5].

Qoʻgʻirchoqlar inson qiyofasini aks ettirgan oʻyinchoqdir. Qoʻgʻirchoqlar deyarli barcha qizlar, aksariyat, oʻgʻil bolalar uchun yasaladi. Qoʻgʻirchoq orqali bolalar turli kasblar haqida oʻzlarida fikr shakllanadi va oʻzlarini qiziqishlaridan kelib chiqib qoʻgʻirchoqlarni tanlab oʻynaydi. Kimdir onasi rolida boʻlsa, boshqasi qizi rolida, yana kim esa shifokor va hokazo. Goʻdaklik davrida bila qanday oʻyinchoqga oshno tutinsa, undan ruhiy taʼsir oladi. Qoʻgʻirchoqlar bolalarga goʻzallik, nafislik, qoʻrqmaslik kabi xislatlarni shakllantiradi. Qoʻgʻirchoq birinchi boʻlin 150 yil oldin Amerika Qoʻshma Shtatlaridan "Barbi" nomli qoʻgʻirchoq Oʻzbekistonga kelgan. Chet el qoʻgʻirchoqlari bizning milliyligimizdan ancha uzoqda boʻlganligi uchun bolalari kichikligidan xuddi kattalardek fikrlab, kattalarga taqlid qilishga urinishgan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin, milliyligimizni targʻib qilish va kelajak avlodga ham yetkazishimiz uchun milliy qoʻgʻirchoq yaratishga har tomonlama tadbirkorlarimizga shart-sharoit yaratib berilmoqda. Yurtimizda milliy qoʻgʻirchoqlarga boʻlgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Bu qoʻgʻirchoqlar orqali bolalarga milliy maʼdaniyatimiz, urf-odatlarimiz oʻrganadi.

Bolaning nutqini rivojlantirish muhim va murakkab jarayondir. Nutqni rivojlantirishning asosiy davri – o‘yin faoliyati davri bilan bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, mashg‘ulotlar o‘yin shaklida olib borilsa, samaraliroq bo‘ladi. Odatda o‘yin shaklida faoliyat yuritishni talab qilishning hojati yo‘q, chunki aslida har qanday o‘yin bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bolaning nutqini rivojlantirishga o‘yinchoqning ta‘siri katta. O‘yinchoqlar bilan har kuni o‘tkazadigan o‘yinlarida bola nafaqat o‘zi foydalanadigan ob'ektlarni, balki ularning xususiyatlari, o‘lchamlari, shakli, rangi va boshqalarni ham nomlashni o‘rganadi. U o‘yinchoqlarni o‘yinga o‘z g‘oyalariga mos ravishda qo‘shadi va ularning qolganlari bilan munosabatlarini aniqlaydi. O‘yinda ishtirok etadigan narsalar va shaxslar orqali ijtimoiylashadi. Bola o‘yindagi barcha harakatlarini nutq bilan birga olib boradi.

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarga tasvirlay olish, kuzatuvchanlik va bilish qobiliyatlarni shakllantirish maqsadida “Toping va tavsiflang” o‘yinida tashkil etish mumkin. Ushbu o‘yinni tashkil etish uchun turli xil o‘yinchoqlar tanlanadi: ikkita qo‘g‘irchoq - biri kamon bilan, ikkinchisi kamonsiz; turli xil rangdagi ikkita mushuk. O‘yinchoqlar birma-bir ko‘rib chiqiladi va taqqoslanadi; ularning xarakterli xususiyatlari va farqlarini aytish orqali bolaning lug‘at boyligi faollashtiriladi. Keyin tarbiyachi o‘yinchoqlarni yashiradi (bolalar ularni tezda topishi uchun) va ularni topishni taklif qiladi: “Aziz oq mushukchani, Malika qora rangni, Nigora esa kamonli qo‘g‘irchoqni topadi”. Bolalar o‘yinchoqlarni topib olib kelishadi, o‘qituvchining savollari (“Sizda qanday mushuk bor? Mushukning boshida nima bor? Va bu nima?”) Bola tarbiyachi yordamida ularni nomlaydi va tavsiflaydi.

Ushbu suhbat natijasida bolalarning turlicha javoblari asosida fikrlar umumlashtirildi: “Malika qora mushukchani topdi. Uning boshida quloqlari, katta ko‘zlari, mo‘ylovi bor. Mushukchaning ham uzun dumi bor”. Bolalar savollarga yaxshi va to‘g‘ri javob berishni o‘rgansalar, tarbiyachining tavsifini takrorlashlari so‘raladi. Shunday qilib, bu erda bolaga mavzuni tavsiflashda yordam berishga

qaratilgan kuzatish, ko‘rib chiqish, savol-javob, suhbat, analiz-sintez metodlar qo‘llaniladi.

Bolaning og‘zaki nutqini rivojlantirish va uning so‘z boyligini boyitish vositasi sifatida o‘yinchoqlardan foydalanish tez samara beradi. O‘yinchoq bolada lug‘atni mustahkamlash va faollashtirish imkoniyatini yaratadi, yangi so‘zlarning manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘yinchoq bolada faqat ijobiy his-tuyg‘ularni, gapirishga bo‘lgan istakni uyg‘otadi. Bolaning tasvirlash va hikoya qilishga bo‘lgan qiziqishi orqali bilimlari ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Гербова В. Планирование работы по развитию речи и ознакомление с художественной литературой // Дошкольное воспитание, 1999, № 3, с19-22.
2. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish». - T.: «O‘qituvchi», 1990
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. -T.: 2016 y., 29-dekabr.
4. Крупская Н.К. Дошкольное воспитание. 1899. С 165.
5. Qurbonova Maftuna. Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works // Экономика и социум, 2020. №6(73), с 432-437.